



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 352 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
<b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
<b>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</b>	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
<b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
<b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati .....	33
<b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
<b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
<b>Maydonova Saboxat Sadulloevna</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
<b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies .....	52
<b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
<b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
<b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
<b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
<b>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</b>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
<b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
<b>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</b>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
<b>Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi</b>	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
<b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri.....	90
<b>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
<b>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</b>	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
<b>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati.....	105
<b>Murodova Madina Karim qizi</b>	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
<b>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</b>	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
<b>Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna</b>	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
<b>Quronboyeva Mavluda Bahodirovna</b>	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
<b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
<b>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</b>	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
<b>Yusupov Ulug'bek Kadirovich</b>	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....	132
<b>F. Zaynabuddinov</b>	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....	135
<b>Киреева Эльвина Фларитовна</b>	
Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....	140
<b>Sanayev Gayrat Shermuxamedovich</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....	144
<b>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</b>	
Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari .....	148
<b>Davletova A.</b>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari .....	152
<b>G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi</b>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .....	156
<b>Madmarova Gulchexra Qodirovna</b>	
O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....	160
<b>Mamajonov Mo'minjon</b>	
Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....	165
<b>Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi</b>	
Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....	169
<b>Muhiddinov Muhriddin Nuriddin o'g'li</b>	
Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.....	173
<b>Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna</b>	
Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini, ularning o'yin ampluasini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....	178
<b>Odilova Feruzaxon Valijon qizi</b>	
PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....	184
<b>Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi</b>	
Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....	188
<b>Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich</b>	
Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari .....	192
<b>Rasulova Nozigul Abdivahid qizi</b>	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish.....	196
<b>Sharofova Nilufar Ilhom qizi</b>	
Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....	200
<b>Tuxtasinova Munira Ibragimovna</b>	
Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....	204
<b>Umarova Madinabonu Bahodir qizi</b>	



O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....	208
<a href="#">Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</a>	
Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili.....	214
<a href="#">Zarina Itolmasova</a>	
Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....	219
<a href="#">Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</a>	
Разработка и внедрение виртуальных лабораторных работ по биохимии для студентов фармацевтических факультетов.....	222
<a href="#">Мамадалиева Зарина</a>	
Abduqodir Shakuriyning ta'lim va tarbiya haqidagi umumiy qarash va g'oyalari: chuqur tahlil .....	226
<a href="#">Ashurova Dilrabo Isroil qizi</a>	
Bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish tizimi ..	230
<a href="#">Jakbarova Zarifaxon Solijon qizi</a>	
Badiiy-estetik qobiliyat tuzilmasi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	233
<a href="#">G. S. Kaxarova</a>	
Umumta'lim maktablarida informatika o'qitish asosida ta'limni raqamlashtirishning metodologik asoslari...	236
<a href="#">Mamajanov Rakhmatilla Yakubjanovich</a>	
Shaxsda ma'naviy intellektni rivojlanishiga qadriyatlar yo'nalganligining ta'siri.....	240
<a href="#">Mirxoliqova Charos Xabibullayevna</a>	
O'qituvchilarning sun'iy intellekt bo'yicha kompetentligini rivojlantirishda metodik yondashuv .....	244
<a href="#">Najmetdinova Nargiza Sayfedinovna</a>	
Ismlarning ma'noliligi va ularni o'qitishda lingvopedagogik yondashuvlar .....	252
<a href="#">Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich</a>	
Fitnes-aerobika mashqlaridan foydalangan holda sog'lomlashtirish mashg'ulotlari uslubiyati.....	258
<a href="#">Shaxriddinova Laylo Nurxonovna</a>	
Raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va "learning analytics"ning nazariy asoslari .....	262
<a href="#">Sulaymanov Zulqaynar Rajabali o'g'li</a>	
Esse yozishni o'rgatishda zamonaviy metodlar.....	268
<a href="#">Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</a>	
Iqtisodiy matnlar tarjimasini o'rgatishda raqamli simulyatsiya va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	272
<a href="#">Xujanazarova Nozima Omonjonovna</a>	
Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ilmiy metodologik asoslari .....	275
<a href="#">Axmedov Nodir Sadir o'g'li</a>	
Talaba-yoshlarda qo'shiq ijrochilik san'atini shakllantirishning zamonaviy pedagogik xususiyatlari: ta'lim islohotlari kontekstida yondashuv.....	279
<a href="#">Begisbay Temirbayev</a>	
Xorijiy davlatlarda biologiya o'qituvchilarini tayyorlash tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	283
<a href="#">Hayitov Abdirasul Eshdavlatovich</a>	
Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga umumiy fizika kursini o'qitishda virtual laboratoriyalarning ahamiyati.....	286
<a href="#">Abdurakibov Akmal Abdugaparovich</a>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi – "instruksional texnologiya" va sun'iy intellektga tayanib o'qitish metodologiyasi .....	290
<a href="#">Abrorxo'ja Muminxo'jayev Muksumxodjayevich</a>	
Jaloliddin Rumiy fikrlarining hozirgi yoshlarga ta'siri .....	296
<a href="#">Allayarov Doniyor Islom o'g'li</a>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.....	298
<a href="#">Aygul Aralbayevna Urazimbetova</a>	
Sud psixologik ekspertizasida travmatik tajriba (PTSD) fonida emotsional reaksiya va ko'rsatma sifati o'rtasidagi bog'liqlik.....	301
<a href="#">Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li</a>	
Boshlang'ich ta'limda 4 "K" kompetensiyalarini rivojlantirishdagi muhim dolzarbliklar .....	307
<a href="#">Idiyeva Gulchehra Izomovna</a>	



Bikaryer oilalarda gender rollar integratsiyasi jarayonidagi psixologik omillar.....	311
<i>Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalarida foydalanish muammolari va yechimlari.....	315
<i>Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda reflektiv yondashuv .....	319
<i>Laylo Baxtiyor qizi Axmedova</i>	
1939-1945-yillarda O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligidagi paxtachilik va oziq-ovqat muammolari .....	323
<i>Mutallibjonov Boburmirzo Muzaffarovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tajriba oxiri jismoniy tayyorgarligi darajasi dinamikasi .....	328
<i>Samadov Sardor Sodiqovich</i>	
O'zbekiston umumta'lim maktablarida mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (CLIL) yondashuvining pedagogik va amaliy imkoniyatlari.....	335
<i>Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi</i>	
O'rta maktab 11-sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirishda turli metodlarning o'rni .....	340
<i>Xamzayeva Ruxshona Abdusamadovna</i>	
Umumta'lim maktablardagi ingliz tili o'quv darsliklari tahlili .....	344
<i>Xiloldinova Zulayho</i>	
Ingliz klassik adabiyoti orqali talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari.....	348
<i>Ziyotov Farruh Saodilla o'g'li</i>	



# BIKARYER OILALARDA GENDER ROLLAR INTEGRATSIYASI JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi  
 "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti  
 2-bosqich tayanch doktoranti (PhD)

**Annotatsiya:** Hozirgi davrda jamiyatda oila institutining ijtimoiy qadriyat sifatidagi ahamiyati yanada chuqur anglanmoqda. Ijtimoiy hayotning iqtisodiy, madaniy hamda mehnat munosabatlari sohasidagi tub dinamik o'zgarishlar oilaviy hayot tarziga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, XXI asr boshidan boshlab jamiyatda bikaryer oilalar sonining keskin ortgani kuzatilmoqda. Bikaryer oilalar shakllanishining asosi ayolning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va kasbiy faolligidagi sezilarli o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Er va xotinning professional rejaları teng ahamiyatga ega deb qabul qilinadi, va ular o'z martabasi bilan birga oila qadriyatlarini ham muvozanatli tarzda olib borishga harakat qiladilar.

**Kalit so'zlar:** Bikaryer oila, shaxslararo munosabatlar, shaxsiy qadriyatlar, nikoh, turmush o'rtoqlar, oilaviy model, gender rollar taqsimlanishi, oilaviy hayotdan qoniqish.

**Abstract:** In the present era, the significance of the family institution as a social value is increasingly being deeply recognized in society. Profound dynamic changes in social life, including in economic, cultural, and labor relations, are directly impacting the lifestyle of families. In particular, since the beginning of the 21st century, there has been a sharp increase in the number of bicareer families. The formation of such families is directly linked to significant changes in women's social status and professional activity. The professional plans of both husband and wife are considered equally important, and they strive to balance their careers with family values.

**Key words:** Bicarrer family, interpersonal relationships, personal values, marriage, spouses, family model, gender role distribution, satisfaction with family life.

**Аннотация:** В настоящее время в обществе всё глубже осознаётся значение института семьи как социальной ценности. Глубокие динамические изменения в социальной жизни, включая экономические, культурные и трудовые отношения, напрямую влияют на образ жизни семьи. Особенно с начала XXI века наблюдается резкий рост числа бикарьерных семей. Формирование таких семей напрямую связано с существенными изменениями в социальном статусе и профессиональной активности женщин. Профессиональные планы мужа и жены считаются равноценными, и они стремятся сбалансировано совмещать карьеру с семейными ценностями.

**Ключевые слова:** Бикарьерная семья, межличностные отношения, личностные ценности, брак, супруги, модель семьи, распределение гендерных ролей, удовлетворенность семейной жизнью.

## KIRISH

Bikaryer oilalarning nikoh, shaxsiy qadriyatlar va naslni davom ettirishga bo'lgan munosabati jamiyatning ayniqsa jiddiy muammolaridan biri bo'lib, mamlakat holati, respublika demografik rivojining kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Bikaryer oila - bu turmush o'rtoqlarning har ikkisi ham mehnat faoliyatida qatnashadigan, jamoat sohasida o'zini oqlash va professional o'sishga intiladigan oilaviy birlikdir. Bunday oilalar modeli turmush o'rtoqlarning uy xo'jaligi ishlarini teng taqsimlashi, bir-birlarining kasbiy manfaatlariga hurmat bilan yondashishi, o'zaro bag'rikenglik, yordam va doimiy qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillarga asoslanadi<sup>[3]</sup>.

Bikaryer oilalarning va nikoh institutiga bo'lgan munosabati hamda oilaviy-nikoh munosabatlarining yoshlarning axloqiy tizimi turli darajadagi faollik kasb-hunar va hozirgi davlat, jamiyat hamda ilm-fan diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda bikaryer oilalardagi gender rollar taqsimlanishi tadqiq etish orqali oilaviy hayotdan qoniqish, oilada rollarning to'g'ri taqsimoti sodir bo'lishi mumkin. Borgan sari murakkablashib borayotgan umumiy ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy-ishlab chiqarish munosabatlari turli xil faoliyat turlari (mehnat, ijtimoiy, dam olish, oilaviy, ta'lim va boshqalar) o'rtasida optimal muvozanatni topish muammosini tobora dolzarblashtirmoqda. Ushbu umumiy muammoning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bu oila va ish o'rtasidagi optimal muvozanatni izlashdir<sup>[2]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda oilaviy hayot siklining barcha bosqichlarida - nikohdan oldingi davrdan tortib, oilaning shakllanishi, rivojlanishi hamda parchalanishiga qadar bo'lgan jarayonlarda - muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ushbu bosqichlarning har birida ro'y berayotgan ijtimoiy va psixologik o'zgarishlar oilaviy munosabatlarning mazmuni va sifati bilan chambarchas bog'liq. Xususan, zamonaviy oilalarda keng tarqalgan bikaryer modeli - ya'ni, er va xotinning ikkalasi ham faol mehnat bilan shug'ullanadigan oilaviy tuzilma - turmush munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday oilaviy modelda munosabatlar faqat shaxsiy xususiyatlarga emas, balki tashqi omillarga ham kuchli darajada bog'liq bo'ladi. Bikaryer oilalar ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning muhim ifodasi hisoblanadi, bu esa jamiyatdagi gender rollarining evolyutsiyasini yaqqol ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyatda ularning roli va ahamiyati tobora oshib borayotganini ko'rish mumkin. Psixologiya sohasida jinslar va ularning ijtimoiy rollari doimiy ravishda alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda [5].

AQShdagi o'zgarishlar ijtimoiy-psixologik munosabatlar orqali yaqqol ifodalanadi. 1938-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, faqatgina besh amerikalikdan biri, agar erning moddiy ta'minoti yetarli bo'lsa, turmush qurgan ayolning biznes yoki sanoat sohasida ishlashini ma'qullagan. Biroq 1993-yilga kelib bu ko'rsatkich tubdan o'zgardi: so'rovda qatnashganlarning 86 foizi bunday ayollarni qo'llab-quvvatlashini bildirgan. Shu bilan birga, ijtimoiy ongda an'anaviy oilaviy rollar haqidagi tasavvurlar saqlanib qolgan: respondentlarning uchdan ikki qismi bolalar uchun ideal oilaviy model sifatida otaning ishlashi, onaning esa uyda bolalar bilan shug'ullanishini afzal ko'rgan. Yuqoridagi raqamlar va tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, bikaryer oilalar zamonaviy jamiyatning ajralmas ijtimoiy institutiga aylanmoqda. Biroq, ularning shakllanishi va rivojlanishi hanuzgacha gender stereotiplari va me'yorga nisbatan mavjud qarama-qarshi ijtimoiy qarashlar fonida kechmoqda [7].

D.Frimanning ta'kidlashicha, hayotiylikni saqlab qolish uchun oila tizimi, bir tomondan, o'zining individual xususiyatlari va chegaralarini mustahkamlab turishi, ikkinchi tomondan esa, o'sish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki impulslar ta'siriga ochiq bo'lishi lozim. Shunday ekan, oila tizimini tadqiq qilishda muhim metodologik vazifa uning statik va dinamik xususiyatlari o'rtasidagi dialektik birlik va qarama-qarshilikni aniqlashdan iboratdir. Bu muammoni yechishda qarama-qarshiliklar birligi va kurashining dialektik qonuniga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Z.A.Yankova tomonidan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, so'rovda ishtirok etgan ayollarning 25 foizi er-xotinlar o'rtasida vazifalarni adolatli va teng taqsimlash zarurligini ta'kidlagan. Ushbu natija shuni anglatadiki, jamiyatda gender tengligi masalasiga nisbatan ijtimoiy ong asta-sekin o'zgarib bormoqda. Ayollarning ushbu ulushi oila doirasida mas'uliyatlarning teng taqsimlanishi, o'zaro tushunish va hamkorlik tamoyillariga asoslangan munosabatlarga ehtiyoj mavjudligini bildiradi. Bu holat, shuningdek, patriarxal me'yorlar ustuvor bo'lgan oilaviy modeldan bosqichma-bosqich uzoqlashish jarayoni davom etayotganini ham ko'rsatadi [10]. Oilada ham, kasbiy sohada ham gender muvozanatining buzilishi gender stereotiplari, reproduktiv munosabatlar va qadriyatlar tizimida shakllanadigan erkaklar va ayollarning gender identifikatsiyasi orqali namoyon bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bikaryer modelidan farqli o'laroq, "tenglik modeli" kasbiy faoliyatda ham, uy ishlarida ham teng ishtirok etishni nazarda tutadi. Bunday oilalarda oila boshlig'i yo'q; bolalarni tarbiyalash, dam olish va boshqa masalalar er-xotin tomonidan birgalikda hal qilinadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender rollarni taqsimlashda sovet modeli, garchi kichik darajada bo'lsa ham, hanzur mavjud. Buning sababi, er-xotinning oiladagi roli haqidagi an'anaviy g'oyalar hali ham katta yoshdagilar ongida saqlanib qolganidir [1].

Oilaviy tajriba bosqichlari:

- Yangi turmush qurganlar – bu bosqichdagi juftliklar ko'pincha to'y eforiyasida bo'ladi, ular hali hayotdagi jiddiy muammolarga duch kelishlariga ishonmaydilar va hayotni romantik ruhda tasavvur qiladilar.
- Yosh oila - bu davrda sevgi yolg'iz o'zi yetarli emasligini anglay boshlaydilar. Juftliklarga o'zaro g'amxo'rlik, tushunish va ishonch muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.
- Bola kutayotgan oila - bu bosqich munosabatlarda muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Juftlik yangi hayot tarziga moslashishi, mas'uliyat va oilaviy roldagi o'zgarishlarni qabul qilishi lozim.



- O'rta yoshli oila (10 yillik birga yashash) – bu davrda munosabatlarda muntazamlik kuchayadi, ba'zan esa ziddiyatlar yuzaga chiqadi. Turmush tarzini qayta ko'rib chiqish, unga yangilik va umumiy manfaatlar qo'shish zarur bo'ladi.
- Katta turmush qurgan oila – bu bosqichda umumiy manfaatlar, murosaga kelish va samarali muloqot yuritish qobiliyati asosiy o'ringa chiqadi.
- Keksa oilalar (nabiralalar dunyoga kelgan davr) – bu davr oilaviy hayotga yangi ma'no kiritadi. Nevaralar bilan munosabatlar, oilaviy iliqlik va yangi avlodga bo'lgan mehr oilaviy aloqalarni mustahkamlaydi [8].

Bikaryer oilalarda rollarning taqsimlanishida, bola tarbiyasi (2,48), oiladagi emotsional muhit (2,46), oilaning moddiy ta'minlanishi (2,38), ko'ngil ochishlarni tashkil qilinishi (2,39), uy sohibi va sohibasi (2,60), jinsiy sheriklik (2,46) hamda oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish (2,46) kabilar oilada rollar teng taqsimlanganini ko'rsatmoqda. Bundan kelib chiqadiki, bikaryer oilalarda rollar taqsimlanishi karyera hamda oila balansini er va xotin bir maromda dinamik ushlab evaziga sodir bo'ladi.



Er-xotinlik va ota-onalik vazifalariga, turmush o'rtog'i va farzandlariga munosabatlar shkalasida ahamiyatli farqlar qayd etildi ( $U=46197,5$ ;  $p<0,05$ ). Erkaklik, oiladagi boshliqlik roliga ustanovka baland bo'lgani bois, erkaklarda turmush o'rtog'iga va farzandlariga munosabat muhim ahamiyat kasb etar ekan. Shuningdek, erkaklarda "erlik" va "otalik" rolini idrok etib, rolli funksiyalarni bajarishda ishdan bo'sh vaqt ajratishga intilish, oilaviy muammolarni ish bilan bog'liq muammolarga kombinatsiyalashtirmasdan bir maromda olib borish yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Bikaryer oilalardagi gender rollar taqsimlanishining psixologik xususiyatlarini o'rganishda etnomadaniy omilning rolini ham inobatga olish darkor. Oilada rollarning taqsimlanishi metodikasining viloyat kesimi bo'yicha farqlari o'rganilganda bola tarbiyasi ( $H=3,617$ ;  $p>0,05$ ), oiladagi emotsional muhit "Psixoterapiya" ( $H=0,079$ ;  $p>0,05$ ), oilaning moddiy ta'minlanishi ( $H=1,345$ ;  $p>0,05$ ), ko'ngil ochishlarni tashkil qilinishi ( $H=0,060$ ;  $p>0,05$ ), uy sohibi va sohibasi ( $H=2,165$ ;  $p>0,05$ ) hamda jinsiy sheriklik ( $H=2,571$ ;  $p>0,05$ ) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilmadi. Bundan ko'rinadiki, etnomadaniy omilning ta'siri oiladagi rollarning taqsimlanishida muhim indikator bo'lmashligi mumkin. Bola tarbiyasi jihatidan ko'proq e'tibor Qashqadaryo viloyatidagi oilalarda sal ustunlik qayd etib, bu ulardagi bola tarbiyasida mustaqillik, bolaning erkin rivojlanishiga yo'l berishning ko'proq ko'lamda namoyon bo'lganligi bilan ham tushuntirilishi mumkin. Oiladagi emotsional muhitda esa Toshkent viloyatidagi oilalarda biroz yuqori ko'rsatkich kuzatilib, oilalardagi er va xotinning bir-birlarini to'liq tushunishlari, oilani intizomiy, xalovat maydoni sifatida ko'rilishining ustunlik kasb etishi bilan qiyoslashimiz mumkin.

Bikaryer oilalarning ijtimoiy holati hamda rollar taqsimlanishi o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlarida qayd etilgan natijalarga ko'ra oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish hamda faoliyat shakli o'rtasida salbiy korrelyatsion aloqadorliklar kuzatildi ( $r=-0,079$ ;  $p<0,05$ ). Ushbu jihat nazdimizda, oiladagi reja qilingan tadbirlarni amalga oshirishda ish grafingining tanqisligi, oila va ish balansini to'g'ri taqsimlamaslik kabi jihatlarni yuzaga chiqarishga imkon beradi. Bikaryer oilalarda rejalashtirilgan tadbirlar va birgalikdagi faoliyatlarni amalga oshirish jarayonida turmush va ish majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatning izdan chiqishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, oila a'zolari orasidagi funksional rollarning noto'g'ri taqsimlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, oilaviy rollar ziddiyatlarining kuchayishiga sabab bo'ladi.

Mazkur holat Hochschild & Machung (1989) tomonidan o'rganilgan "Second Shift" (Ikkinchi navbat) nazariyasi bilan uyg'unlashadi. Ushbu tadqiqotchilar fikricha, bikaryer ayollar ish joyidagi majburiyatlarini ado etgach, ikkinchi navbat ya'ni uyda bolalar, er, ro'zg'or bilan bog'liq ishlarni bajarishga majbur bo'ladi [9]. Natijada bu holat psixologik toliqish, ichki oilaviy aloqa va madaniyatning susayishi bilan kechadi. Shuningdek, Greenhaus

& Beutell (1985) ta'kidlaganidek, ish va oila o'rtasidagi rollarning to'qnashuvi stressning asosiy manbalaridan biridir. Ular tomonidan ishlab chiqilgan "Work-Family Konflikt" modeli asosida, ishdagi ortiqcha bandlik yoki moslashuvchanlikning yetishmasligi oilaviy hayot sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ichki madaniyatni mustahkamlashga qaratilgan harakatlar, aynan ish faoliyatining noaniqligi yoki haddan tashqari bandlik sababli sustlashmoqda <sup>[7]</sup>.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy oilalarda gender rollarini o'zgartirish tendensiyalarini aniqlash uchun oilada gender rollarini taqsimlashning qaysi modellari jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarga mos kelishini aniqlash tavsiya etiladi. Oilada gender rollarini taqsimlash modellarini tasniflash mezonlari davlat mafkurasi va ommaviy ongda oiladagi rollarning taqsimlanishiga dominant qarashlar tizimini, oila a'zolariga ma'lum daromad manbalariga ega bo'lish imkonini beruvchi davlatda rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, oilaviy majburiyatlar doirasi va ularni turmush o'rtoqlar o'rtasida taqsimlash usullari, oilada vakolatlarni taqsimlash, shu jumladan, oila byudjetini sarflash, qimmatbaho xaridlar va bolalarni tarbiyalash bo'yicha turmush o'rtoqlar o'rtasidagi umumiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Bikaryer oilaning mavqeini mustahkamlashi mumkin bo'lgan bir qator omillarni ta'kidlash kerak. Bularga quyidagilar kiradi:


- ayolning ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etish huquqi va amaliy imkoniyati;
- bolalarni tarbiyalashda erkaklarning faollashishi;
- uy xo'jaligida oqilona mehnat taqsimoti;
- uy mehnatining ijtimoiy ahamiyatini oshirish;
- an'anaviy rol tuzilmalarini modernizatsiya qilish;
- jinsga mos keladigan professional va oilaviy rollarni shakllantirish va boshqalar.

Bikaryer oilaning muvaffaqiyati, avvalo, unda yangi gender rollar muvozanatini shakllantira olishiga bog'liq. Agar bunday muvozanat ta'minlansa, bunday oila himoya va qo'llab-quvvatlovchi tizim sifatida faoliyat ko'rsatishda davom etadi.

Nikohning mustahkamligi ko'proq turmush o'rtoqlarning nikoh barqarorligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan psixologik sa'y-harakatlariga, turmush o'rtoqlarning turli ko'rsatkichlar (madaniy, ma'rifiy, diniy, etnik va boshqa xususiyatlar) bo'yicha mos kelishiga bog'liq bo'lib, bu nikohdan qoniqishda hamda oiladagi gender rollarni taqsimlanishida namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Антонов А. И. Судьба семьи в России XXI века : размышления о семейной политике, о возможности противодействия упадку семьи и депопуляции [Текст] / А. И. Антонов, С. А. Сорокин. - М. : Изд-во МГУ, 2009. -184 с.
2. Алешина Ю. Индивидуальное и семейное консультирование. – М: Класс, 2007.
3. Алёшина Ю.Е., Волович А.С. Проблема усвоения ролей мужчины и женщины // Вопр. психол. – 1991. - №4. – с. 77-82.
4. Айвазова С. Женщины и власть : любовь без взаимности [Текст] / С. Айвазова // Женщина Плюс : социально-просветительский журнал. -2000. - № 1. - С. 43-48.
5. Айвазова С.Г. Гендерный дискурс в поле консервативной политики // Женщина в российском обществе. 2017. № 4 (85). С. 3-13. <https://doi.org/10.21064/WinRS.2017.4.1>
6. Stoller R. Sex and Gender: On the Development of Masculinity and Femininity. New York, 1968. Поступила в редакцию 30.05.2014 г.
7. Авдеева А.П. Структурная модель профессиональной карьеры. – М., 2009.
8. Sog'inov N.A. Yosh o'zbek oilalarida yuzaga keladigan er-xotin nizolarining psixologik xususiyatlari. // O'zbek oilasining etnopsixologik muammolari. - Resp. Ilmiy-amaliy anjum. ma'ruz. qisq. bayoni. - T., 1993.- 49-51 b.
9. Christopher A. Higgins; Linda E. Duxbury. Work-Family Conflict: A Comparison of Dual-Career and Traditional-Career Men // Journal of Organizational Behavior, Vol. 13, No. 4. (Jul., 1992), pp. 389-411.
10. Янкова, З.А., Языкова, В.С. XX век и проблемы семьи (По материалам XII-Международного семинара по исследованию семьи). М.: Знание, 1974. 72 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.